

## HADISLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY MASALALARNING YORITILISHI

*Shuxrat Sherov**Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Hadislar Islom ma'naviyati va axloqining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ular insonning ruhiy tarbiyasi, axloqiy pokligi va jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada hadislar ma'naviy-axloqiy masalalarning yoritilishi, odob-axloq qoidalariga oid ko'rsatmalar hamda ularning inson hayotidagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Hadis, ma'naviyat, axloq, odob, insoniylik, islomiy qadriyatlar, tarbiya, poklik.

**Аннотация:** Хадисы являются одним из основных источников исламской духовности и этики. Они имеют большое значение в формировании нравственного воспитания человека, нравственной чистоты и правил поведения в обществе. В данной статье анализируются морально-этические вопросы в хадисах, наставлениях по этикету и их роль в жизни человека.

**Ключевые слова:** Хадис, духовность, мораль, нравы, гуманность, исламские ценности, образование, чистота.

**Kirish**

Islom dini insoniyatga nafaqat diniy aqidalarni, balki axloqiy tamoyillarni ham o'rgatgan muqaddas ta'limotdir. Qur'oni Karim bilan bir qatorda hadislar ham musulmonlar hayotida muhim o'rin tutadi. Hadislar Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning so'zlari, amallari va tasdiqlarini o'z ichiga olgan bo'lib, ular inson ma'naviyatini yuksaltirish va axloqiy mukammallikka erishish yo'lida muhim qo'llanmadir. Ushbu maqolada hadislar asosida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning yoritilishi va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Quyida odob-axloq fazilati haqida hadisdan sharh keltiramiz:

Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi, bir kishi Nabiy s.a.v.ga dedi: "Menga nasihat qiling". U zot: "G'azab qilma", dedilar. U (savolini) bir necha bor takrorladi. Payg'ambar s.a.v.: "G'azab qilma", dedilar. (Imom Buxoriy rivoyati).

Imom Jurdoniy (rohimahulloh) aytadi: "Darhaqiqat, bu hadis Payg'ambar s.a.v.ga ato etilgan javomi' ul-kalim (qisqa lafzlar orqali ulkan ma'nolarni ifoda etish mo'jizasi)dan hisoblanuvchi buyuk hadisdir. Chunki, u dunyo va oxirat yaxshiliklarini o'zida mujassam etgandir".

Savol beruvchi sahobiyning shaxsiga kelsak, ayrim ulamolar bu Abu Dardo (roziyallohu anhu) ekanini ta'kidlaydilar. Bunga Imom Tabaroniyning Abu Dardo (roziyallohu anhu)dan qilgan quyidagi rivoyatini dalil qilib keltiradilar: "Men: "Ey Allohning rasuli, meni jannatga olib kiradigan amalga yo'llang", dedim. U zot s.a.v.: "G'azab qilma, jannat seniki", dedilar". Ayrim ulamolar esa mazkur sahobiy Joriya ibn Qudoma (roziyallohu anhu) ekanini aytadilar. Bunga

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Imom Ahmadning Joriya ibn Qudoma (roziyallohu anhu)dan qilgan quyidagi rivoyatni hujjat qiladilar: “Men Payg‘ambar s.a.v.ga savol berib bunday dedim: “Ey Allohning rasuli, menga bir o‘git ayting, uni anglab olishim uchun uni menga oz qiling”.

U zot s.a.v.: “G‘azab qilma”, dedilar. Men bir necha bor u zotga so‘rovimni takrorladim. Har gal u zot: “G‘azab qilma”, dedilar”.

Bunday voqea bir necha marotaba yuz bergan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. SHunday ekan, so‘rovchi sahobiylarning ham bir nechta bo‘lishidan biror mone yo‘q.

Komil musulmon go‘zal xulqlar bilan sifatlangan inson bo‘lib, u muloyimlik va hayo ila bezanadi, insonlarga nisbatan kamtarlik va do‘stlik libosini kiyadi. Odamlarga ozor berishdan saqlanish, intiqom olishga qurbi etsada, kechirib yuborish, qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish, hatto o‘ziga nisbatan adolatsizlik qilinganida ham g‘azabni yutish, hamma vaqt ochiq yuzli bo‘lish uning mardonavor xislatlaridandir. Abadiy saodat istab nasihat so‘ragan sahobiyga Rasululloh s.a.v.ning ko‘rsatmalari yuqoridagi ma‘nolarni o‘z ichiga olgan ushbu mo‘‘jazgina o‘git bo‘ldi:

“G‘azab qilma”.

So‘rovchi sahobiy jannatga kirishdek oliy maqsadiga erishishi uchun mazkur o‘gitni oz hisoblab, nasihat qilish haqidagi so‘rovini bir necha bor takrorladi. Mazmun-mohiyatini anglagan va taqozosiga amal qilgan kishi uchun etarli nasihat ekanligini ta‘kidlash uchun Payg‘ambar s.a.v. har gal “G‘azab qilma” degan jumlaning qaytaraverdilar.

Oqil sahobiy Rasululloh s.a.v.ning ta‘kidlarini tushunib etdi va maqsadlarini angladi. Darhaqiqat, Imom Ahmaddan qilingan bir rivoyatda nasihat so‘ragan sahobiydan quyidagi xabar keltiriladi: “Nabiy s.a.v. aytgan o‘gitlarini aytganlarida tafakkur qildim, banogoh, g‘azab barcha yomonliklarni keltirib chiqarishini tushundim”. Buning ma‘nosi shuki, agar kishi g‘azab qilmasa, barcha yomonliklarni tark etgan bo‘ladi. Kimki barcha yomonliklarni tark etsa, barcha yaxshiliklarni hosil qilgan bo‘ladi.

### Hadislarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar

Hadislarda axloqiy tarbiyaning turli jihatlarini yoritilgan bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. **Halollik va poklik** – Hadislarda halol mehnat qilish va halol daromad topish haqida ko‘plab rivoyatlar keltirilgan. Rasululloh (s.a.v) halollikning inson hayotidagi o‘rni haqida shunday deganlar: *"Halol rizq izlash har bir musulmonning burchidir."*
2. **Samimiyat va halollik** – Haqiqatgo‘ylik va yolg‘ondan yiroq bo‘lish har bir musulmonning asosiy fazilatlaridan biridir. Payg‘ambarimiz (s.a.v) aytganlar: *"Haqiqatgo‘y bo‘ling, chunki haqiqat ezgulikka, ezgulik esa jannatga eltadi."*
3. **Odob va hurmat** – Hadislarda ota-onaga hurmat, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash va insonlarga yaxshi muomala qilishga katta e‘tibor qaratilgan.

4. **Rahm-shafqat va bag‘rikenglik** – Hadislarda insonlarga mehribon bo‘lish, yetimlarga, miskinlarga, muhtojlarga yordam berish tavsiya etilgan. Rasululloh (s.a.v) marhamat qiladilar: *"Kim yetimni o‘z bag‘riga olib, unga mehr ko‘rsatsa, men va u jannatda yonma-yon bo‘lamiz."*

### **Xulosa**

Hadislar musulmonlar hayotida axloqiy mezonlarni belgilab beruvchi muhim manba hisoblanadi. Ular insonning ma'naviy kamolotga erishishiga, axloqiy barkamollik sari intilishiga yordam beradi. Halollik, samimiyat, hurmat, rahm-shafqat kabi fazilatlar nafaqat individual, balki jamiyat farovonligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, hadislardagi ma'naviy-axloqiy pand-nasihatlarini chuqur anglab, ularga amal qilish har bir musulmonning asosiy burchidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 24 avgustda Samarqand viloyatida amaliy tashrifida Imom Buxoriy ziyorati <https://president.uz/uz/lists/view/5457>
2. Hoji Ismatulloh Abdulloh “Markaziy osiyoda islom madaniyati” 48-52 bet
3. A.Mansurov, U.Jo‘rayev, M.Lafasov “Hadis ilmi saboqlari” Toshkent 1999 18-bet
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Odoblar xazinasi”, “Al-adab al mufrad”.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adabu-l-mufrad. Bayrut. Doru-l-bashoiri-l-islomiya, 1989. –B.443.